

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

“ФАЛСАФАНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ”

мавзусидаги Республика миқёсидаги
илмий-назарий конференция

Т Ў П Л А М И

ЎЗБЕКИСТОНДА ХИЗМАТ КЎРСАТГАН ФАН АРБОБИ, ФАЛСАФА ФАНЛАРИ ДОКТОРИ,
ПРОФЕССОР МУҲАММАД НАЗАРОВИЧ БОЛТАЕВ ТАВАЛЛУДИНИНГ
85 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ

БУХОРО – 2014

HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI.

Y.Z.Abdullaev – BuxDU Xarbiy fakulteti boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari, mayor

O'quvchi yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo'lishi, ularni har taraflama harbiy xizmatga tayyorlash va mustaqil O'zbekiston ravnaqini himoya qilish bo'yicha o'z burchini ado etish - o'quv yurtlari pedagogik jamoalari muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etishda "Harbiy-Vatanparvarlik tarbiya asoslari" fani yordam beradi. XVTA kursi fani – bu yoshlar harbiy-Vatanparvarlik tarbiyasi metodologik va g'oyaviy – nazariy asoslari, o'quv yurtlaridagi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining tizimi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'quvchilarni xizmat qilishga ma'naviy-siyosiy, psixologik va jismoniy jihatdan tayyorlashning tashkiliy, mazmuni, shakllari va uslublarini tashkil qiladi.

XVTA kursining asosiy vazifalari quyidagilar:

birinchidan, o'quv yurtlarida o'rganiladigan boshqa fanlar bilan bog'langan holda talabalarni milliy vatanparvarlik ruhida o'z Vatani himoyasiga qo'lida qurol bilan chiqishga doim tayyor qilib tarbiyalash.

ikkinchidan, talabalarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning faol, ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va o'z vatani uchun hayotini beradigan tayyor insonlarni yetishtirish.

uchinchidan, talabalarni XVTA nazariy va amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda akademik litseylar, kollejlardagi harbiy rahbarga xos bo'lgan lavozimida o'quv-tarbiyaviy ishning tashkil etilishi va o'tkazilishi bo'yicha ko'nikma va qobiliyatlarini ishlab chiqish.

O'rta o'quv yurtlaridagi harbiy vatanparvarlik asoslarining harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida va darsdan tashqari shakl va metodlari, mudofaa va sport ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasini; "Vatanparvar", "Salomatlik" normalari va "SHunqorlar" o'yinini tashkil qilish va o'tkazish, o'quv yurti va o'quv-dala mashg'ulotlarini o'tkazish, CHXT kursining tugashiga bag'ishlangan bayramlar o'tkazishni maqsad qilib olgan.

Quyidagilarni bajara olishi zarur: o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'rta o'quv yurtlaridagi tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish: xalqimiz jangovar va mehnat shuhratiga sazovor bo'lgan joylariga safarlar uyushtirish, urush va mehnat fahriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, Qurolli Kuchlar askarlari bilan uchrashuvlar, harbiy vatanparvarlik mavzusi bo'yicha nazariy konferentsiyalar o'tkazish, harbiy Oliy bilim yurtlarida o'qish uchun nomzodlar tanlash va tayyorlash. Harbiy ish asoslarini o'rganish uchun harbiy to'garaklar tashkil qilish.

O'rganish jarayonida har bir talaba mustaqil ravishda harbiy vatanparvarlik mavzusida 4-5 ma'ruza tayyorlashi shart (doklad, referat).

Mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish yoshlar tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ilmiy-texnika rivojlanishi tezligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarbiyalash-bu insonlarni jamiyat, mehnat yoki boshqa foydali faoliyatga, shu bilan birga ko'p qirrali ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashning ob'ektiv asoslangan jarayonidir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uning ajralmas qismi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi metodologiyasi, uning ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo'llaniladi. Bu tushunchaga insonning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-jismoniy va boshqa fazilatlarini yig'indisiga kiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O'zbekiston Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vatanparvarlik va mustaqil Vatani himoyasi haqidagi g'oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, xalq ta'limi Vazirligi, Mudofaa Vazirligining buyruq va ko'rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqalar qoidalari o'rin olgan.

Vatani himoyasi haqidagi asos soluvchi fikrlar davlatimizning mudofaa doktrinasida aks etgan. O'R mudofaa doktrinasini alohida ahamiyatga ega bo'lgan mudofaa xususiyatiga ega va urushni bartaraf etish, harbiy qurilish, mamlakat va Qurolli Kuchlarni tajavuzkorlikni qaytarishga tayyorlash, Vatani himoyasi uchun qurollangan kurash olib borish usullariga bo'lgan asosiy fikrlar tizimini tashkil etadi. Harbiy xavf potentsial manbalari mavjud ekan O'zbekiston zaruriy yetarlilik darajasida davlat mudofaa qudratini mustahkamlaydi.

Xavf-xatar tug'ilishi mumkin bo'lgan sabablar:

1. Dunyoning turli mintaqalarida qurollangan guruhlarining bir joyga to'planishining yuqori darajasi.
2. Dunyo bo'yicha siyosiy vaziyatning kuchayishi
3. Alohida Davlatlar va davlat bloklarining o'z siyosatlarini kuch bilan hal qilishi
4. Ba'zi davlatlarning boshqa davlatlar chegarasi yaqinida havo Kuchlari guruhlarini kuchaytirishga intilishi

5. CHegaradosh mamlakatlarda yuzaga kelgan siyosiy ahvolning o'zgaruvchanligi va ularning kuchayishi imkoniyati

6. Ba'zi bir Davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi malakatlarga o'z ta'sirini kuchaytirishi

7. Siyosiy ekstremist guruhlar, naqonuniy-harbiy uyushmalar tomonidan tashkil qilingan terroristik aktlar. SHu bilan birga millatlar orasida buzg'unchilik siyosatning olib borilish faoliyati.

Xalqning tinch xayoti va mamlakat xavfsizligi kafolati eski xayotdan yangi yuksak xayotga qadam qo'ygan yosh mamlakat mustaqiligini kurlaydigan Qurolli Kuchlarimizning tarixiy vazifasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52- moddasida yozilgan: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir O'zbekiston fuqarosning burchidir. SHuning uchun 30 avgust 1995 yilda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan mudofaa Doktrinasi iqtisod, mintaq va aholini mudofaa, qilishga tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini aniqlaydi.

Jumladan axolining harbiy tayyorgarligi:

1) Maktablar va boshqa o'quv yurtlari, "Vatanparvar" MKT o'quv tashkilotlarida, chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi yoshlarning harbiy tayyorgarlik tizimida;

2) Qurolli Kuchlarda shaxsiy tarkibning muddatli harbiy xizmatni o'tashi davomida

3) Harbiy litseylar, Respublika fuqarolik oliy o'quv yurtlarining harbiy fakultet va kafedralarida

4) Qurolli Kuchlarga tegishli bo'lgan maxsus tuzilmalarda.

Fuqarolarni Vatan himoyasiga tayyorlash tarbiya tizimining barcha shakllarida olib boriladi.

Vatan, yerga bo'lgan muxabbat – xalqimiz qalbiga singib ketgan, azaliy milliy xususiyatga ega bo'lgan xislatdir. I.A.Karimov aytib o'tganlaridek: "Ma'naviyat soxasida eng asosiy vazifamiz insoniy qadriyatlarimizni asrash va rivojlantirish, bolalarimizni ozod demokratik O'zbekistonning komil o'g'il-qizlari qilib tarbiyalashdir".

Tarbiyaning siyosiy, g'oyaviy, e'tiqodiy, estetik va boshqa turlari har bir O'zbekistonlikda yangi jamiyat mehnatkashi, yuqori ma'naviy- siyosiy xislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda unda mamlakat ishonchli mudofaasiga doimiy tayyorlikni tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

Davlatimizning asosiy vazifalaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodlari va shakllari yordamida inson ongiga har qanday tajovuzkorga qarshilik ko'rsatishda doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z Vatani himoyasi uchun shaxsiy javobgarlikni tarbiyalashdir.

"Vatan hissi, Vatan tushunchasi biz uchun sajdagoxday muqaddas, pok va ulug'" – deb ta'kidlagan I.A.Karimov.

O'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasida pedagogika va psixologiya qoidalaridan keng foydalaniladi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytgan: "Fan-bu dunyo boyligi. Bilim-insonning oliy va muqaddas yutug'i. Zero bilish ko'zgu kabi, bizga dunyo qarashimiz, intilishlarimizni ko'rsatadi. Qilich kabi aqlimiz, fikrimizni o'tkirlaydi".

I.A.Karimov ta'lim-tarbiya san'atini egallash muhimligini bir necha bor gapirib o'tgan, "har bir qatlam kasb va psixologiyasi xususiyatlari, o'ziga xos belgilarini tushuna olishga sabr-toqat va ehtiyotkorona yondashishi kerak".

"Bolalarimizni Vatanparvarlik ruhida, ularni mehrl, rostgo'y, vijdonli qilib tarbiyalashimiz kerak".

Ahloqiylik-avvalam bor bu vijdon, vijdoniylik hissi. Bu-ishonch va haqiqatgo'ylik.

Harbiy Vatanparvalik ishini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o'rganuvchi harbiy psixologiya katta ahamiyatga ega.

Harbiy psixologiya Vatanimiz himoyasi uchun o'z burchini bajarishga yoshlarni psixologik tayyorlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Psixologik fan inson shaxsiyati, ichki ma'naviy dunyosi, o'zini tutish omillari, bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik ishini to'g'ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi.

Tarbiyachilarning psixologik fanni yaxshi bilishi ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o'quvchilarini harbiy o'quv yurtlariga kirish va O'zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Yoshlarning harbiy-vatanparvalik tarbiyasi shuningdek zamonaviy urush xususiyati, qurollangan jang vosita va shakllari, qonuniyligi, jangovar harakatlar sharoitlarini ochib beradigan harbiy fan qoida va xulosalarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Harbiy fan har bir kishi qanday ma'naviy-siyosiy, psixologik va jangovar xislatlarga ega bo'lishi, Vatan himoyachisi majburiyatini muvaffaqiyatli bajarini uchun unga qanday bilim, ko'nikmalar zururligi haqidagi savollarga javob beradi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiya ilmiy asoslari, Vatan himoyasiga yoshlarning ma'naviy siyosiy va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha amaliy faoliyatning mazmuni, tashkili jixatlari, shakl va metodlarini aniqlovchi boshlang'ich nizomlar, asos soluvchi qoidalar, talablarini bildiradigan printsiplarda tadbir qilinadi, aniqlashtiriladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi printsiplari o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektivdir. Ular haqiqiy holat real aloqa va munosabatlari aksi, mamlakat mudofaasiga xalqni tayyorlash bo'yicha davlat va ijtimoiy tashkilotlar ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat ifodasidir.

Printsiplar quyidagilardan iborat:

Ilmiy ob'ektivlik printsipl. Daiillar, jarayon va voqealarni taxlil qilishga qat'iyon ob'ektiv yondashish ularni har taraflama ko'rib chiqishni talab etadi. Harbiy vatanparvarlik ishi jangovar, faol, hujum qila oladigan xususiyatga ega bo'lishi, Vatan himoyasiga yoshlarni tayyorlashdagi kamchiliklarni ocha olishi va ularni bartaraf etishga choralar qabul qilish kerak.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasida barcha haqiqiy hollarini vaqt davomida rivojlanishi va o'zgarishi sifatida ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan **aniq-tarixiy yondashish printsipl** juda katta ahamiyatga ega. Bu printsipl avvalom bor aniq-tarixiy vaziyatdagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mazmuni, shakl va uslublarining muvofiqligini nazarda tutadi. Aniq tarixiy yondashish printsipl shuningdek xalq, Qurolli Kuchlarning qahramonona tarixi asosida inson tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan harbiy vatanparvarlik ishida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra haqiqatni o'zgartirmagan holda tarixiy voqealarni ob'ektiv yoritish katta ahamiyatga ega.

Harbiy vatanparvarlik ishlarining muhim printsiplaridan biri – **vatanparvarlik va baynalminal tarbiya birligidir.**

Barcha tarbiyachilar faoliyatida vatanparvarlik va baynalminal vazifalar organik o'zaro bog'langanligi va o'zaro shartlanganligi jangchi shaxsini shakllantiradigan, doimiy ravishda nima uchun u qo'lga qurol olgani va himoya qilayotganini eslatib turadigan qudratli omil bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiya printsiplaridan biri yoshlarning **turli guruxiga farqli yondashishida** mujassamlashgan.

Bu printsipl harbiy vatanparvarlik ishining manfaatlari va o'ziga xos xususiyatlari, ko'p millatli davlatimiz turli millat va xalqlari urf-odatlarini va milliy an'analarini hisobga olgan holda qurish kerakligini talab qiladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligi aniq vazifalar, mazmun, shakl, uslub va vositalar, o'ziga xos ma'lum vazifalarni hal etadigan turli davlat va ijtimoiy organlar, tashkilot va muassasalarni o'z ichiga oladigan mavjud ma'lum bir tizim orqali amalga oshiriladi.

Bu tizim umumiy xususiyatga ega, ya'ni vatanparvarlik ongini shakllantirish jamiyatimiz barcha o'quv tarbiyaviy muassasalari va institutlari vazifasi hisoblanadi. Ikkinchidan, u uzluksiz, inson hayotining barcha bosqichlarida yaxlit faoliyat qiladi. Uchinchidan, zero armiya va xalq uzilmas birlikka asoslangan.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi.

Ma'naviy-siyosiy va psixologik tayyorgarlik	harbiy-texnik tayyorgarlik	harbiy-jismoniy tayyorgarlik
Ijtimoiy tarixiy va gumanitar tsikldagi darsda	Mehnat va fizika-matematika tsikli darslarida	CHXT va JT darslarida
Darsdan tashqari vaqtda	Darsdan tashqari vaqtda	Darsdan tashqari vaqtda
Fanlar bo'yicha to'garaklar	Fanlar bo'yicha to'garaklar	"Salomatlik" kompleksi normativlarini topshirish
Jasorat darslari	Texnik to'garak va seksiyalar	Sport seksiyasi
Harbiy vatatparvarlik mavzusi bo'yicha insholar yozish ko'rigi	"Vatanparvar" o'quv tashkilotidagi mashg'ulotlar	Sportning harbiy amaliy turlari bo'yicha musobaqalari
Harbiy otaliq ishlari	Harbiy vatanparvarlik maktab va birlashmalari	harbiy-sport lagerlari
"Vatanparvar" harbiy – sport musobaqalari		harbiy-sport bayrami va kechalari

O'zbekiston jangovar va mehnat shon-shuhrati joylariga yoshlar safari

Qidiruv ishi	haykallar o'rnatish	Faxriylar va nogironlarni otaliqqa olish
Urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuv		Jangovar shon-shuhrat muzey va xonalarini yaratish

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining bosh vazifasi mustaqil, o'z yo'lidan rivojlanayotgan vatanimiz uchun, g'urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf-odadlarimizga sadoqat harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, qo'limizdagi qurol bilan muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z fuqarolik burchini ado etishdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy ishga qiziqishni rivojlantirish harbiy kasblarni egallash, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni ko'zda tutadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi maqsadi Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta'minlaydigan fikr, ishonchi dunyo qarashni shakllantirish, unga bor kuchni kerak bo'lsa hayotini ham berish; bo'lajak jangchilar ma'naviy – jangovar xislatlarini tarbiyalash.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishlari.

Birinchi yo'nalish. Yoshlarda siyosiy va psixologik fazilatlarni shakllantirish – harbiy vatanparvarlik tarbiya bosh vazifasi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ikkinchi yo'nalishi harbiy-texnik tayyorgarlik. Uning borishida o'quvchilarda quyidagi jangovar xislatlar shakllanadi: harbiy bilim, jangovar mahorat, intizomlilik va tashkiliylik, jangovar birodarlik harbiy qasamyod va nizomlar talablarini komandir va boshliqlar buyruq va ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish. Bu yerda boshlang'ich harbiy tayyorgarlik, Mudofaa-ommaviy ishlari katta o'rin tutadi.

Respublikamizda harbiy tayyorgarlikka har doim katta e'tibor berilgan, 1918 yildan boshlab mamlakatda harbiy o'rta o'quv yurti, hozirda Toshkent oliy umumqo'shin komandirlar o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda, u minglab yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorladi, 50 ga yaqin bitiruvchilari qaxramonlik unvoniga loyiq bo'ldi.

Aholini harbiy o'qitishga "Armiya, aviatsiya va flotga yordam ko'rsatishning ko'ngilli jamiyati" (DOSAAF), hozirda "Vatanparvar" mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot (MKT) katta va behisob hissa qo'shdi.

Urush yillarida bu tashkilot 27000 pulemyotchi, 3340 mergan o'q otuvchi, 4551 otlik, 22400 Voroshilov merganlari, 22000 o'qchi, 3000 avtomobil va mototsikl haydovchilari, 3078 tibbiy hamshira, 2000 alo'achi, 4 ta aviatsiya diviziyasi uchun uchuvchi, shturman, o'qchi-radistlarni tayyorladi.

1934 yildan boshlab Toshkent aviaklubi ish boshladi, uning 10 ta bitiruvchisi Ikkinchi Jaxon urushida qahramon bo'ldi.

Respublika DOSAAFi o'rta Osiyo respublikalari hududlarida shakllangan o'n minglab vatanparvarlarni tayyorladi.

Mehnatkashlar, yoshlar harbiy tayyorgarligi zamonaviy sharoitlarda mamlakat mudofaa qudratini boshqarish bo'yicha davlat faoliyatida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bizda Toshkent, CHirchiq, Samarkand, Jizzax shaharlarida oliy harbiy bilim yurtlari faoliyat ko'rsatadi.

1995 yil 2 sentyabrda Qurolli Kuchlar uchun oliy ofitser va generallarni tayyorlaydigan O'R Qurolli Kuchlar Akademiyasi ochildi.

MDX boshqa mamlakatlaridan farqli bizda o'quv yurtlarida chakiriqqacha tayyorgarlik, harbiy kafedralar va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash uchun fakultetlar saqlanib qoldi. Aholi harbiy tayyorgarligiga "Vatanparvar" MKT ham katta hissa qo'shmoqda.

Qo'shinlar qurollanishida raketa quroli, avtomatlashtirilgan boshquruv sistemalari, zamonaviy aloqa vosita radiolokatsion moslamalar, avtomatika va telemexanika turli qurilmalari mavjud. Samolet, jangovar texnika va Qurolli Kuchlarning piyoda va boshqa turlari qurollanish jangovar imkoniyatlari anchaga kengaydi.

O'R Qurolli Kuchlar Akademiyasi ochilishida I.A.Karimov shunday degan edi: "Ishni shunday qo'yish kerakki, kadrlar tayyorgarligi eng zamonaviy talablarga javob bersin, harbiy fan oxirgi yutuqlari, Ikkinchi Jaxon urushi va undan keyingi urushlar, xususan Afg'on urushidagi jangovar harakatlarni olib borish tajribasini hisobga olgan holda o'tkazilsin".

XVT uchinchi yo'nalishi yoshlar jismoniy tarbiyasini tashkil etadi. U jismoniy chidamlilik, og'ir jismoniy vazifalarni kundalik harbiy xizmat hamda jangovar sharoitda ko'tara olish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Jismoniy o'quv-nafaqat o'z-o'zidan muhim bo'lgan tetiklik va optimizm manbasi, balki Vatan mehnati va himoyasiga tayyorlik, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish shaklidir.

Maktab yillari – butun umrga fundamental sog'liq asoslarini singdiruvchi paytdir. Harakat, gimnastika, sport o'yinlari o'quvchilar ijobiy xislatlarini shakllantiradi: mardlik, iroda, qiyinchiliklarni bartaraf eta olish. Bolalikda yo'l qo'yilgan jismoniy tarbiyadagi kamchiliklar, murakkab, ba'zida umuman katta yoshda to'ldirib bo'lmaydigan jarayon.

Zamonaviy yosh jismoniy tayyorgarligi zamonaviy ishlab chiqarish hamda Qurolli Kuchlar safida xizmatga bo'lgan talablarga javob bermaydi.

Jismoniy uquv bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlar kasalligidan xo'jalik soxalari katta zarar ko'rmoqda.

Statistika ko'rsatadiki, o'quvchi yoshlar ichida ortiqcha og'irlikka ega, kasalliklarga moyil bo'lgan gavda va tayanch-harakatlantiruvchi apparatda nuqsonlari bo'lgan yoshlar foizi katta, mutaxassislar fikricha, qoloq o'quvchilar ichidagi 58% dangasalik yoki yaxshi rivojlanmaganlik sababiga ko'ra emas, balki jismoniy nuqson va kamchiliklar deb o'z tengdoshlaridan orqada qoladi.

Tuman, shahar madaniy-oqartuv va sport muassasalaridan yaxshi foydalanish, turli sport to'g'arak va seksiyalari faoliyati oshirish jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sifatliroq o'tkazish kerak.

Ma'ruzani I.A.Karimovning quyidagi so'zlari bilan yakunlaymiz: "Respublika milliy xavfsizligi asoslari – respublika yoshlaridir. Yoshlar tayanchimiz, kelajakka bo'lgan ishonchimiz, xalq manfaati ishlarining davomchisi. Barchamiz bolalarimiz kelajagi, baxti uchun mehnat qilmokdamiz. Yoshlarimiz qanday bo'lishiga nafaqat xavfsizligimiz, balki davlatimiz milliy tiklanishi, gullab yashnashining takomillashuvi g'oyalarining amalga oshirilishi ham bog'lik".

Siz bu yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatga tayyorlashingiz kerak bo'ladi.

Harbiy vatanparvarlik asoslari kursi Sizlarga Vatan himoyachilarini yuqori malakali darajada tayyorlashga yordam beradi.

ТАРИХИЙ ХОТИРА ВАТАННИ СЕВИШГА ЎРГАТАДИ

А.Эсонов – БухДУ камта ўқитувчиси

Мустақиллик - Ватан озодлиги демакдир. Озодлик эса энг олий неъматлардан биридир

Мустақилликка эришганимиздан кейин халқимизнинг ўз юрти, тили, маданияти, қадирятлари тарихини билишга, англашга қизиқиши ортиб бормоқда, -дейди Президентимиз Ислам Каримов - Бу табиий ҳол. Одамзот борки, авлод – аждоди кимлигини, насл – насабини, ўзи туғилиб вояга етган кишлок, шаҳар, хулласки, Ватанининг тарихини билишини истайди.

Президентимизнинг бу қимматли фикрлари айниқса ёш авлодни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш учун янада муҳим аҳамият касб этади. Давлатимиз раҳбарининг қуйидаги сўзлари ҳам ўқувчи ёшларимиз қалбида ватанга муҳаббат, миллий ифтихор туйғуларини уйғотиш учун хизмат қилади:

"Ҳозир Ўзбекистон деб аталувчи ҳудуд, Ватанимиз нафақат Шарқ балки умумжаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлганини бутун жаҳон тан олмоқда. Бу қадимий ва табаррук тупроқда буюк алломалар, фозилу—фузолар, уламолар, сиёсатчилар, саркардалар етишиб чиққан. Диний ва дунёвий илмларнинг асослари мана шу заминда бунёд этилган, сайқал топган".

"Бизнинг эрагача ва ундан кейин қурилган мураккаб сув иншоатлар (қадимий ер ости ариқлар—коризлар ва чўл, даштларга жон сақлаш учун қурилган чуқур ва салқин сардобалар, тўғонлар ва сув айиргичлар, сунъий суғориш иншоатлари ва хоказолар), шу кунгача кўрку файзини, маҳобатини йўқотмаган осори атиқаларимиз (Бухоро арки, Арислонхон масжидининг минораси, яъни Минораи Калон, Мир Араб, Шердор, Улугбек, Тиллақори, Бибихоним, Кукалдош, Ҳожи Ахрор мадрасалари, Исмоил Самоний, Гўри Мир, Шохи Зинда мақбаралари) қадим-қадимдан юртимизда дехқончилик, хунармандчилик маданияти, меъморчилик ва шаҳарсозлик санъати бўлганидан далолат беради".

Давлатимиз раҳбари "Тарихий хотирасиз келажак йўқ" асарида ҳаққоний ёзилганидек, "Бешавқат даврлар синовларидан омон қолган энг қадимги тошёзувлар, битиклардан тортиб, бугун кутибхоналаримиз ҳазинасида сақланаётган 20 мингдан зиёд қўлёзма, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, физика, кимё, астрономия, меъморчилик, дехқончиликка оид ўн минглаб асарлар бизнинг беқиёс маънавий бойлигимиз, ифтихоримиздир. Бунчалик катта меросга эга бўлган халқ дунёда кам топилади. Шунинг учун ҳам бу борада жаҳоннинг санокли мамлакатларигина биз билан беллаша олиши мумкин, деб дадил айта оламан".

Ҳа, юртбошимиз бу масалада минг бора ҳақлидир. Мана шундай қадимий ва беқиёс маънавий бойлигимиз билан ёш авлодни таништириш, биринчидан, улар кўнглида Ватанга, буюк ватандошлари бўлган алломаларга меҳр-муҳаббат, миннатдорчилик туйғуларини уйғотади, иккинчидан, ёшларимиз шу Ватан фарзанди сифатида ана шу буюк алломаларнинг буюк муносиб ворислари бўлишга ундайди, учунчидан, Ватанимизнинг мана шу беқиёс маънавий ва моддий бойликларини турли душманларнинг босқинчилигидан тажовузларидан ҳимоя қилиш ўзларининг шарафли бурчлари эканлигини англаб етишга ёрдам беради.

Н.А.Баҳриева МУОМАЛА МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БАРКАМОЛ ШАХС ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА.....	134
L.S.Elibayeva, G.G.Habibova YOSH AVLODNING HUQUQIY MADANIYATI VA ONGINI SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK TARBIYASINING AHAMIYATI.....	136
Х. М.Тожибоева, Д. Умарқулова АБУ НАСР ФОРОБИЙ ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ТЎҒРИСИДА.....	137
G.G.Habibova, L.S.Elibayeva HUQUQIY TARBIYA- FUQAROLIK JAMIYATINI QURISH NEGIZI.....	138
С.Т.Фуломова, Ш.Ж.Раззоқова РАҲБАР ШАХСИГА ДОИР АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	140
O'U.Qurbonova, I.U.Qurbonova, T.Hakimova YOSHLAR FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMIDA NUTQ MADANIYATI, MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, ADOLATLILIK.....	142
А. Шарипова, М.Джалолова И.А.КАРИМОВНИНГ «ЮКСАК МАЪНАВИЯТ – ЕНГИЛМАС КУЧ» АСАРИДА ТАРИХНИ ЎРГАНИШ ОРҚАЛИ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАСИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ.....	144
O'U.Qurbonova, I.U.Qurbonova, G.Bekniyozova BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISH FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSI.....	145
G.Hasanova BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI.....	146
O.T. Шарипова, Ш.Б. Муртозаев ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВА ЖАНУБИЙ ШАРҚИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАР.....	147
B.B.O'razov, R.Komilov GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA KOMIL INSONNI TARBIYALASH MASALASI.....	149
Х. Р. Тошов, З. М. Аневрова, Д. Р. Қаршиева, М. М. Қодирова ТАБИАТ ВА ЖАМИЯТ МУНОСАБАТЛАРИДАГИ МУАММОЛАРНИНГ ЕЧИМИГА ОИД БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	150
B.B.O'razov, A.H.Gadoyeva AXLOQIY MADANIYAT, RANBAR VA XODIM MUHOQOTI.....	152
Y.Z.Abdullaev HARBIIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI.....	154
А.Эсонов ТАРИХИЙ ХОТИРА ВАТАННИ СЕВИШГА ЎРГАТАДИ.....	158
Ў.С.Очилов, Н.М.Очилова ҲУҚУҚШУНОСЛИҚДА МАТН ВА ТИЛ ТАЛҚИНИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗА.....	159
Ш.Н. Аминов СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ СИЁСИЙ ТАФАККУРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОМИЛИ.....	160
Л.Э.Турсунов ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА СИЁСИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ.....	161
Akramova Ozoda, Sohibova Firuza AXBOROT XURUJI TANDIDLARI.....	163
Akramova O., Sohibova F. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH SHAROITIDA YOSHLAR TARBIYASIDA AXLOQIY MEROSNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	163
Norova A., Maxmudova N. SOG'LOM AVLOD VA SHAXS KAMOLATI.....	164
Sharipova A., Djalolova M. KONSTITUTSIYA -ISTIQLOLNING MANGU MAYOG'I.....	165
Sharipova A., Djalolova M. YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH.....	166
V БЎЛИМ:	
МИЛЛИЙ ҒОЯ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТ УЙҒУНЛИГИНИНГ ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИ	
Р.Ҳ. Рўзиева, Н.А.Эшонкулова МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДА ШАКЛЛАНГАН МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР БИЛАН УЙҒУНЛИГИ.....	167
Ш. Негматова ЎЗБЕКИСТОНДА ДЕМОКРАТИК ИСЛОҲОТЛАРНИ ЯНАДА ЧУҚУРЛАШТИРИШДА АХЛОҚ ВА БОШҚА ИЖТИМОИЙ ОНГ ШАКЛЛАРИНИНГ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИ.....	168
Р.Қиличев МИЛЛИЙ МАФКУРАНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШДА ЖАДИД МАКТАБЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	169
А.Н.Шопулатов ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТ УЙҒУНЛИГИДА МЕҲНАТГА ЯНГИЧА МУНОСАБАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЪНАВИЙ АСОСЛАРИ.....	173
Х.Ф. Хайдаров, Р.Т. Хайдарова СОҒЛОМ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ.....	174
М.А.Атаевуллаев ГЛОБАЛЛАШУВ ВА МОДЕРНИЗАЦИЯ: ДИАЛЕКТИК БОҒЛИҚЛИКНИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ.....	176
F.Sh.Abdullayeva, Sh.Jo'rayeva OMMAVIY MADANIYAT TARG'IBOTIDA IJTIMOY TARMOQLARNING O'RNI.....	178
Ж.Ш.Шоназаров, М.М. Алланазаров, А.З. Хўжаназаров МИЛЛИЙ ИСТИҚЛОЛ МАФКУРАСИ ВА ШАХС ЭРКИНЛИГИ.....	180
Ш.Ж.Ҳошимов, С.Х.Ҳошимова МАЪНАВИЙ ҲАЁТДАГИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНИ ВА УНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТ БАРПО ЭТИШДА TUTGAN ЎРНИ.....	181
М. А.Назарова МИЛЛИЙ УРФ - ОДАТЛАР ВА ҚАДРИЯТЛАРИМИЗНИНГ АНЪАНАВИЙ ҲАЁТ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ.....	183
Алланазаров М.М., Хўжаназаров А.З. МУСТАҚИЛЛИК ВА МАФКУРАВИЙ МУАММОЛАР: ҒОЯВИЙ БЎШЛИҚ ВА ЗАРАРЛИ ҒОЯЛАРНИНГ ЖАМИЯТИМИЗГА ТАЪСИРИ.....	184
Г.С. Юнусова, М.Ф.Кодирова ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДА ОИЛА ВА ЖАМИЯТНИНГ ЎРНИ.....	186
А.И.Сафаров ДЕМОКРАТИК ТАМОЙИЛЛАР УСТУВОРЛИГИ-МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛЛИК ОМИЛИ.....	188
Ғ. Ҳабибова, М. Дониёров ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ЖИСМОНИЙ БАРКАМОЛЛИК ҒОЯСИ.....	190
D.S.Abdullayeva, M.B.Alimova JAMIYAT VA AYOL.....	191